XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-100-7-106-K/25 Kattaqo‘rg‘on shahar

2026-yilda Kattaqo‘rg‘on shahri bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qaridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi Samarqand viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 2-dekabr 20-184058-sonli xatiga, Kattaqo‘rg‘on shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari- Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i I.Mamatovning 2025-yil 5-dekabridagi 01-38/5-sonli xatiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari shahar Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuniga, Kattaqo‘rg‘on shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari- Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i I.Mamatovning 2025-yil 5-dekabridagi 01-38/5-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda shahar hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, shahar bo‘yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsientlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 1-ilovaga hamda noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shaharhokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i M.Zavqiev, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (O.Kadirov), shahar soliq inspeksiyasi (F.G‘aniev) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (J.Quldoshev) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (M.Zavqiev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **G.Alimova**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-100-7-106-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar

(Qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Kattaqo‘rg‘on shahar	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20	1,20

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-100-7-106-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga 2026-yil uchun qo‘llaniladigan koeffitsientlar*

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qum-toshlar)
1	Kattaqo‘rg‘on shahar	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,10	1,10